

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

PHLOMIS NUBILANS ZAKIROV TURINING IUCN MEZONLARI ASOSIDA BAHOLASH NATIJALARI

G'ulomov Rustamjon Komiljon o'g'li

Namangan davlat universiteti, Biologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

E-mail: gulomovr92@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada *P.nubilans* EOO=3604.666 km², AOO=60.000 km² ekanligi aniqlandi. Bu 2 km² masofa bilan belgilangan 15 ta o'sish maydonlarida uchrashi va har bir populyatsiya orasidagi masofa 5-20 km tashkil etishi aniqlandi. Tur IUCN tomonidan ishlab chiqilgan *Endangered* (EN) toifasini B1ab(i,iii,v) +2ab(ii,iii,iv) mezonlari bilan baholandi. Tur O'zbekiston “Qizil kitobi”ning 2025 yilgi 6-nashri uchun muhofazaga olish maqsadida qayta tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: *Phlomis nubilans*, *Lamiaceae*, *IUCN*, *Endangered*, *Qizil kitob*

Аннотация. В статье определено, что *P.nubilans* EOO=3604.666 км², AOO=60.000 км². Установлено, что он встречается на 15 участках произрастания, определенных на расстоянии 2 км², а расстояние между каждой популяцией составляет 5-20 км. Вид был оценен как находящийся под угрозой исчезновения (EN) по критериям МСОП B1ab(i,iii,v)+2ab (ii,iii,iv). Вид повторно рекомендован к охране в 6-м издании Красной книги Узбекистана в 2025 году.

Ключевые слова: *Phlomis nubilans*, *Lamiaceae*, *МСОП*, *Endangered*, *Красная книга*.

Abstract. In the article, it was determined that *P.nubilans* EOO=3604.666 km², AOO=60.000 km². It was found that it occurs in 15 growth areas defined by a distance of 2 km², and the distance between each population is 5-20 km. The species has been assessed as *Endangered* (EN) by the IUCN criteria B1ab(i,iii,v) +2ab(ii,iii,iv). The species is re-recommended for protection in the 6th edition of the Red Book of Uzbekistan in 2025.

Key words: *Phlomis nubilans*, *Lamiaceae*, *IUCN*, *Endangered*, *Red Book*

Kirish. O'zbekiston florsida tarqalgan *Phlomis nubilans* Zakirov kamyoblik maqomini xalqaro IUCN (International Union for Conservation of Nature) tamoyillari bo'yicha baholash, GeoCAT (Geospatial Conservation Assessment) xaritalarini tayyorlash, antropogen omillar tasiri va muhofaza qilinadigan hududlar bilan bog'liq masalalarni tahlil etish vazifa sifatida belgilangan. Tadqiqotlar “O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi holatini tanqidiy baholash. Jizzax, Samarqand va Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida tarqalgan turlar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash” (2023-2025) loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Tur “Qizil kitob”ning navbatdagi nashri uchun quyidagi yangi formatda (11 ta band) baholash amalga oshirildi.


Natijalar. *Phlomis nubilans* Zakirov. Ko'rimsiz qo'ziquloq. Зопник мрачный. **Taksonomiyasi**

Kingdom	Phylum	Class	Order	Family
Plantae	Magnoliophyta	Magnoliopsida	Lamiales	Lamiaceae
O'simliklar dunyosi	Magnoliyatoifa	Magnoliyasimonlar	Yalpiznamolar	Yalpizdoshlar
Царство растений	Цветковые	Магнолиевые	Губоцветные	Губоцветные

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

1. **Maqomi** (EN) – Yo’qolib ketish xavfi ostida. (IUCN Categories and Criteria version 3.1). Nurota tizmasidagi kamyob endemik o’simlik. Turning tarqalish areali (EOO) – 3604.666 km² va (AOO) – 60.000 km² ni tashkil etadi. Tur *Endangered* (EN) toifasini B1ab(i,iii,v)+2ab(ii,iii,iv) mezonlari bilan baholandi. Bu 2 km² masofa bilan 15 ta o’sish maydonida uchraydi (1-rasm).



1-Rasm. *P. nubilans* turining tarqalish GeoCAT xaritasi

2. **Tahdidlar.** Qishloq xo’jalik ekinlari uchun yerlarning o’zlashtirilishi va chorva mollarning tufayli kamaygan. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ning 2009 4-nashri va 2019 yil 5-nashriga 3-kamyoblik maqomi bilan kiritilgan [1,2].

3. **Qisqacha tavsifi.** Bo’yi 30-40 sm ga yetadigan ko’p yillik o’t. Poyasi bir nechta. Bargi tuxumsimon, chetlari tekkis yoki noaniq arrasimon, ustki tomoni yulduzsimon va oddiy tuklar bilan qoplangan, pastki tomoni esa qalin yulduzsimon tukli va yo’g’on tomirli. Gullari bandsiz, poyaning yuqori qismidagi burglar qo’tig’ida 2-3 tadan siyrak halqa hosil qilib joylashgan. Guloldi bargchalari bigizsimon, kosacha nayidan 1.5 barobar uzun. Kosachasi 10-13 mm uzunlikda, qalin yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Toji pushti, uzunligi 23-27 mm. Iyulda gullab, mevasi avgust oyida yetiladi. Urug’idan ko’payadi [1,2,3,4] (2-rasm).


4. **Tarqalishi.** Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari: Nurota tizmasi, Oqtoq’da tarqalgan [5,6,7] (2-rasm).

5. **O’sish muhiti.** Tog’ning pastki va o’rta qismida (1300 m) mayda jins tuproqli, shag’alli va toshli yonbag’irlarda o’sadi.

6. **Soni.** Tabiatda yakka-yakka va bir-biridan ajiralgan to’plari uchraydi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.



2-Rasm. A) *P. nubilans* turining ekologiyasi; B) Generativ organlar tasviri (N.Beshko; <https://www.plantarium.ru/page/image/id/617079.html>); O'zbekiston Milliy gerbariy (TASH!) fondida saqlanayotgan namunasi.

7. **Foydalanilishi.** Ma'lumotlar yo'q. 8. **Madaniylashtirilishi.** Ma'lumotlar yo'q. 9. **Muhofaza choralari.** Populyatsiyasining bir qismi Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi. 10. **Adabiyotlar ro'yxati.** [1...]. 11. **Tuzuvchilar.** R.K.G'ulomov.

Xulosa. Olingan natijalar O'zbekiston "Qizil kitobi"ning 2025 yilda chop etilishi rejalashtirilayotgan 6-nashrini tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini 2018 yil 1034-son "O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: “Chinor ENK”, 2019.
2. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: “Chinor ENK”, 2009.
3. Закиров К. З. Новые виды рода *Phlomis* // Бот. мат. Герб. ин-та бот. и зоол. АН УзССР, Т. 9. Ташкент, 1947. – С. 3.
4. Махмедов А. М. Роды *Phlomis* и *Salvia* // Определитель растений Средней Азии. Т. 9. Ташкент: Фан, 1987. – С. 107-113, 139–151.
5. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф. и др. Кадастр флоры Узбекистана: Навоийская область (сосудистые растения). – Ташкент: “Фан”, 2019б. – С. 35.
6. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров У. Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область (сосудистые растения). – Ташкент: “Фан”, 2018. – С. 177.
7. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Батошов А.Р., Азимова Д.Э. Кадастр флоры Узбекистана: Джизакской область (сосудистые растения). – Ташкент: “Chinor ENK”, 2015. – С. 399.